

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**No 4**  
maxsus son

**2025**  
IYUL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU

**BAKALAVR  
TALABALARINIG  
MAQOLALARI  
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Nostandart bandlikning asosiy shakllari: ijtimoiy inklyuziya va iqtisodiy diversifikatsiya vositasi sifatida .....	10
<b>Zuxra Abdikarimova, Saida Eshchanova</b>	
“Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O‘zbekiston modeli” .....	16
<b>Tojliiyev Sherdorbek Elmurod o‘g‘li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o‘g‘li</b>	
Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida turizm sohasini yaxshilash va hududiy raqobatbardoshlikni ta‘minlashning yarim zamonaviy yo‘nalishlari .....	20
<b>Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi</b>	
Sekinlashayotgan iqtisodiyot fonida Yaponiya va Xitoy o‘rtasidagi sanoat raqobati: sifat va nusxaning to‘qnashuvi .....	24
<b>Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi</b>	



# SEKINLASHAYOTGAN IQTISODIYOT FONIDA YAPONIYA VA XITOIY O'RTASIDAGI SANOAT RAQOBATI: SIFAT VA NUSXANING TO'QNASHUVI

## Mamatov Sardor Ilyasovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Raqamli iqtisodiyot kafedrasini o'qituvchisi  
E-mail: [xon.9229@gmail.com](mailto:xon.9229@gmail.com)

## Shoydulova Maftuna Zafar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
E-mail: [iqtisod2005@gmail.com](mailto:iqtisod2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Xitoyning sanoat rivojlanishi natijasida arzon va ko'p miqdordagi nusxa mahsulotlar ishlab chiqarish orqali Yaponiyaning texnologik va ishlab chiqarish sektorlariga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, Xitoy tomonidan ishlab chiqarish tannaxrini pasaytirish bo'yicha qo'llanilayotgan strategiyalar – arzon mehnat bozori, davlat subsidiyalari va texnologik ko'chirmachilik (kopyialash) kabi omillar o'rganiladi. Maqolada, shuningdek, Yaponiyaning texnologik ustunligi va raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun ilgari surilayotgan innovatsion va institutsional choralar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot yakunida Yaponiyaning ushbu muammolarga qarshi yechim sifatida yangi texnologiyalarni joriy etish, kreativ muhandislik salohiyatini rivojlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Xitoy sanoati, Yaponiya iqtisodiyoti, nusxa mahsulotlar, arzon ishlab chiqarish, texnologik raqobat, innovatsion siyosat, raqobatbardoshlik, mehnat bozori ustunligi, davlat subsidiyalari, global ta'minot zanjiri, iqtisodiy strategiya, ilmiy-tadqiqot va rivojlanish.

**Abstract:** This article analyzes the impact of China's industrial development on Japan's technology and manufacturing sectors, focusing on the mass production of inexpensive copycat products. It examines China's cost-reduction strategies, including low-cost labor, government subsidies, and technology imitation. The article emphasizes Japan's need to maintain its technological advantage and competitiveness through innovation policies and institutional reforms. The study concludes with practical recommendations for Japan, such as adopting advanced technologies, enhancing creative engineering capacity, and strengthening international collaboration.

**Keywords:** Chinese industry, Japanese economy, counterfeit products, low-cost manufacturing, technological competition, innovation policy, competitiveness, labor market advantage, government subsidies, global supply chain, economic strategy, research and development.

**Аннотация:** В статье рассматривается влияние промышленного развития Китая на технологический и производственный секторы Японии, осуществляемое посредством массового производства дешёвых копий продукции. Анализируются стратегии Китая по снижению себестоимости, включая использование дешёвой рабочей силы, государственные субсидии и копирование технологий. Особое внимание уделено мерам, предпринимаемым Японией для сохранения технологического лидерства и конкурентоспособности: инновационная политика и институциональные реформы. В заключение представлены практические рекомендации по внедрению новых технологий, развитию креативной инженерии и усилению международного сотрудничества.

**Ключевые слова:** Китайская промышленность, экономика Японии, поддельная продукция, дешёвое производство, технологическая конкуренция, инновационная политика, конкурентоспособность, преимущества рынка труда, государственные субсидии, глобальная цепочка поставок, экономическая стратегия, научные исследования и разработки.



## KIRISH

Ikkinchi jahon urushi Yaponiya uchun nafaqat insoniy, balki iqtisodiy jihatdan ham og'ir yo'qotishlarga olib keldi. 1945-yil 6–9-avgust kunlari Hiroşima va Nagasakiga tashlangan atom bombalari mamlakatni vayronalarga aylantirdi. Infratuzilma, sanoat va ijtimoiy muhit butunlay izdan chiqdi. Ammo aynan ana shu xarobalardan boshlab, yapon xalqi o'zining mehnatkashligi, intizomi va innovatsion tafakkuri bilan jahon tarixida “Yaponiya mo'jizasi” (Nihon no kiseki) nomi bilan mashhur bo'lgan iqtisodiy yuksalishni boshlab berdi.

1950–1990-yillar oralig'ida Yaponiya real yalpi ichki mahsulot (YAIM) bo'yicha jadal o'sish sur'atlariga erishdi. Xususan, 1955–1973-yillar mobaynida real YAIM o'rtacha yillik 10 foizdan ortiq bo'ldi. Mamlakat avtomobilsozlik, elektronika, kema qurilishi kabi strategik tarmoqlarda global bozorni egallab, raqobatchilardan ustunlik qila boshladi. 1980-yillarning oxiriga kelib, Yaponiya dunyo iqtisodiyotida AQShdan keyingi ikkinchi eng yirik iqtisodiy quvvatga aylandi.

Biroq 1990-yildan boshlab ushbu o'sish barqarorligi izdan chiqdi. 1980-yillar oxirida moliyaviy bozorlar haddan tashqari qimmat baholandi — bu holat “moliyaviy pufak” (financial bubble) deb nomlandi. Masalan, 1989-yilda Tokio birjasining Nikkei 225 indeksi 38 915 punktga yetdi, bu hali-hamon tarixiy eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Ko'chmas mulk narxlar esa ayrim hududlarda 500 foizdan ortiq darajada o'sdi.

1991-yilda moliyaviy pufak yorilib, aksiyalar va ko'chmas mulk bozorida inqiroz yuz berdi. Banklar yomon aktivlar bilan to'lib ketdi, ularni davlat tomonidan qutqarishga to'g'ri keldi. Ushbu davr Yaponiya iqtisodiy tarixida “yo'qotilgan o'n yillik” (失われた10年, Ushinawareta jūnen) deb nom olgan bo'lib, uning salbiy ta'siri hatto 2000-yillargacha davom etdi.

Aynan shu davrdan boshlab, Yaponiya demografik inqirozga duch keldi. Aholining qariyb 30 foizining 65 yoshdan oshgani iqtisodiyotning real o'sish sur'atlariga jiddiy bosim o'tkazmoqda. Ushbu demografik holat Yaponiya iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida asosiy muammolardan biriga aylandi (1-jadval).

1-jadval. Statistik ma'lumotlar: Real YAIM yillik o'sishi (%)<sup>1</sup>

Yil	Real YAIM o'sishi (%)
1990	5.6
1991	3.1
1992	0.8
1993	0.3
1994	0.7
1995	1.9
1996	3.2
1997	0.7
1998	-2.0
1999	0.2
2000	2.9

Turg'unlikning sabablari<sup>2</sup>

Yaponiya bu inqirozdan asta-sekinlik bilan chiqdi, biroq bu jarayon ikki o'n yillikni talab qildi. Ushbu tajriba hozirda O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim saboq bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy sektorni ehtiyotkorlik bilan rivojlantirish, aktivlar pufagining shakllanishini oldini olish, demografik muvozanatni saqlash hamda innovatsion islohotlarning barqarorligini ta'minlash — bularning barchasi Yaponiyaning iqtisodiy tarixidan o'rganilishi lozim bo'lgan saboqlardir.

2010-yildan keyingi davr Yaponiya uchun global o'zgarishlar, ichki islohotlar va pandemiyadan keyingi tiklanishlar davri bo'ldi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli real YAIM 4,1 % ga qisqardi, biroq keyingi yillarda iqtisodiyot sekin-asta tiklana boshladi. 2024-yilda esa o'sish bor-yo'g'i 0,1 % ni tashkil etdi — bu esa Yaponiya iqtisodiyotining sekin harakatlanuvchi, biroq nisbatan barqaror mexanizmga aylanganini anglatadi (2-jadval).

1 <https://www.statista.com>.

2 Muallif ishlanmasi.

2-jadval. Yaponiya real YAIM yillik o'sishi (%) — 2010–2024<sup>3</sup>

Yil	Real YAIM o'sishi (%)	YAIM hajmi (trln USD)
2010	+4.2	5.70
2011	-0.1	6.23
2012	+1.5	6.20
2013	+2.0	5.16
2014	+0.3	4.85
2015	+1.2	4.38
2016	+0.5	4.95
2017	+2.2	4.87
2018	+0.6	5.00
2019	-0.2	5.08
2020	-4.3	4.94
2021	+2.1	4.94
2022	+1.0	4.23
2023	+1.9	4.45
2024*	+0.9	4.65

Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiyoti – yuqori texnologiyalarga tayangan, global ta'minot zanjirlarida hal qiluvchi rol o'ynaydigan, biroq ichki iste'mol va mehnat kuchi yetishmovchiligi tufayli haqiqatga yuzma-yuz kelayotgan iqtisodiyotdir. Uning YAIMi hajmi jihatidan hanuz dunyoda kuchli beshlikdan o'rin oladi, biroq o'sish sur'atlari an'anaviy yapon sekinligiga mos – ehtiyotkor, hisob-kitobli va xavfsiz.

Ushbu maqolada Yaponiya iqtisodiyotining 2010–2024-yillar oralig'idagi real YAIM ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Maqsad – raqamlar ortidagi haqiqatni yoritish, o'zgarishlarning sabablari va oqibatlarini tushunish, hamda Yaponiya tajribasi asosida O'zbekiston uchun qanday saboqlar chiqarish mumkinligini ko'rib chiqishdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Yaponiya iqtisodiy taraqqiyotning “mo'jizaviy modeli” sifatida butun dunyo e'tiborini qozondi. Ammo 1990-yillarning boshidan boshlab mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlari keskin sekinlashdi. Ushbu jarayon “yo'qotilgan o'n yillar” nomi bilan tarixga kirgan bo'lsa-da, amalda Yaponiya hanuzgacha o'zining ilgari egallagan yuqori o'sish dinamikasiga qayta olgani yo'q. Bu holatga olib kelgan omillar bir nechta qatlamli bo'lib, ular orasida iqtisodiy, demografik va institutsional sabablar o'zaro bog'liq holda rol o'ynaydi. Quyidagi tahlilda ushbu omillar chuqur yoritilib, ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan fikrlar ham tahlil etiladi.

Yaponiyada 1980-yillarning oxirida yuzaga kelgan moliyaviy “ko'pirtirilgan pufak” (asset bubble) 1991-yilda portlagach, mamlakat uzoq davom etgan iqtisodiy turg'unlik davriga kirib qoldi. Bu inqiroz nafaqat moliyaviy sektor, balki real iqtisodiyotda ham uzoq muddatli deflyatsion bosim va past iqtisodiy faollikka sabab bo'ldi. Yapon banklari uzoq yillar davomida “yomon aktivlar” bilan kurashdi, bu esa kreditlar oqimini cheklab, xususiyl sarmoyani kamaytirdi.

Bu borada Haruhiko Kuroda (2016) ta'kidlaganidek, Yaponiya Banki tomonidan olib borilgan ultra-yumshoq monetar siyosat – salbiy foiz stavkalari va aktivlarni katta hajmda sotib olish – kutilgan darajada iqtisodiy rag'batlantirish effektini bermagan. Uning fikricha, Yaponiya ichki iste'molga yo'naltirilgan modeldan eksportga tayanuvchi, yuqori samaradorlikka ega va innovatsion iqtisodiyotga o'ta olmagan.

Yaponiya bugungi kunda dunyodagi eng keksaygan aholiga ega davlatlardan biridir: 65 yoshdan oshganlar umumiy aholining 29 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Aholi sonining kamayishi va tug'ilish darajasining doimiy past bo'lishi mamlakatda mehnat resurslarining qisqarishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish salohiyatining pasayishi, soliq bazasining torayishi va ijtimoiy himoya tizimi yukining ortishiga sabab bo'lmoqda.

Naohiro Yashiro va Takatoshi Ito (2012) ushbu jarayonni “demografik turg'unlik” deb atab, mehnat bozorini qayta shakllantirish, ayniqsa ayollar va keksalar ishtirokini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular migratsiya siyosatini liberallashtirish va oilalarni qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiy mexanizmlarni kengaytirishni taklif etadilar.

3 <https://www.esri.cao.go.jp/en/sna/menu.html>.



Yaponiya institutsional muhitidagi uzoq yillik konservativlik iqtisodiy dinamikaga to'siq bo'ldi. Innovatsion siyosatning sekinligi, qattiq mehnat qonunlari va byurokratik tizimning murakkabligi mamlakatning yangi global iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini pasaytirdi.

Bu borada Richard Katz o'zining "Japan: The System That Soured" (2003) asarida Yaponiyaning "post-sanoat" iqtisodiy modeliga o'tishda sust harakat qilganini tanqid qiladi. Uning fikricha, davlat tomonidan bozor iqtisodiyotiga kiritilgan cheklovlar, o'zaro manfaatdor guruhlarning (keiretsu tizimi) konservativ manfaatlari va innovatsiyalarni yetarli darajada rag'batlantirmaslik mamlakatda iqtisodiy o'sishning sekinlashuviga sabab bo'lgan.

So'nggi yillarda Yaponiya yangi global chaqiriqlarga ham duch kelmoqda. Xususan, 2020–2022-yillardagi COVID–19 pandemiyasi davrida ishlab chiqarish zanjirlari izdan chiqdi, xalqaro savdo sekinlashdi, ichki iste'mol pasaydi. Shuningdek, energiya narxlarining global o'zgarishi, valuta bozorlaridagi noaniqliklar ham Yaponiya iqtisodiyotiga qo'shimcha bosim yukladi.

OECD va Jahon banki hisobotlariga ko'ra, 2020–2023-yillarda Yaponiya YAIM o'sishi 0,5–1,3 % atrofida bo'ldi. Bu esa rivojlangan iqtisodiyotlar orasida eng past ko'rsatkichlardan biridir. Yoko Takeda va Hiroshi Yoshikawa kabi zamonaviy iqtisodchilar Yaponiya iqtisodiy o'sishini tiklash uchun yuqori texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, yashil energetika va ishlab chiqarishga yirik hajmdagi investitsiyalar yo'naltirilishini zarur deb biladilar.

Yaponiya YAIM o'sishining sekinlashuvi bir vaqtning o'zida uchta asosiy omil – iqtisodiy inqirozlarning merosi, demografik turg'unlik va institutsional moslashuvchanlikning pastligi – bilan izohlanadi. Ushbu holat faqat statistik yoki qisqa muddatli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki uzoq muddatli strukturaviy tahlil orqali tushunilishi zarur. Yaponiyaning bu boradagi tajribasi boshqa davlatlar, xususan, iqtisodiy rivojlanish yo'lida turgan mamlakatlar uchun ogohlantiruvchi, shu bilan birga, foydali saboq bo'la oladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni ilmiy asosda o'rganish jarayonida statistik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot davomida turli xil ilmiy adabiyotlar, maqolalar va statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, mavzuga doir ilmiy yondashuv asosida umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yaponiya dunyoning eng yirik uchta iqtisodiyotidan biri bo'lishiga qaramay, so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi, aholi sonining qisqarishi va demografik bosim kabi omillar fonida real yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishida sezilarli pasayishlar kuzatilmoqda. Quyida 2010–2024-yillar davomidagi real YAIM o'sish sur'atlari, ularni shakllantirgan asosiy omillar va Yaponiya iqtisodiyotining bu omillarga javoban amalga oshirgan choralarining statistik tahlili asosida keltirilgan (3-jadval).

3-jadval. Yaponiya iqtisodiy o'sish sur'atlari (2010–2024) va asosiy omillar: tahlil va yechimlar

Yil	Real YAIM o'sishi (%)	Asosiy omillar	Hukumat va institutsional javob / yechimlar
2010	4.2	Global moliyaviy inqirozdan keyingi eksport va ishlab chiqarish tiklanishi	Eksportni rag'batlantiruvchi siyosatlar; valyuta kursining raqobatbardosh darajada ushlab turilishi
2011	-0.1	Tohoku zilzilasi, Fukusima AES falokati, iste'mol ishonchining keskin pasayishi	Favqulodda holat sarmoyalari; infratuzilmani qayta tiklashga 11 trln iyenlik byudjet ajratildi
2012	1.5	Reabilitatsiya va davlat xarajatlari evaziga talab tiklanishi	Soliq yengilliklari, subsidiyalar; regulyatorlar tomonidan "ko'rinmas qo'l" prinsipi orqali pul–kredit rag'batlari
2013	2.0	Abenomics strategiyasi: kengaytirilgan monetar siyosat, fiskal rag'batlar	Markaziy bank tomonidan agressiv obligatsiyalar xaridi, inflyatsiyani rag'batlantirish, eksport uchun yanani qadrsizlantirish
2014	0.4	QQS oshishi (5 % → 8 %), ichki talabning qisqarishi	Soliq yukini pasaytirish bo'yicha kechiktirilgan islohotlar, xususi iste'molni rag'batlantirish choralarini ishlab chiqish
2015	1.2	Eksportning kuchayishi, AQSH va Xitoy bozorlarida barqarorlik	Tashqi savdo siyosatini liberallashtirish, TPP (Trans–Tinch okeani sherikligi) muzokaralari
2016	0.6	Global savdodagi noaniqliklar, iste'molning pasayishi	Kichik va o'rta bizneslarni kreditlashni kengaytirish, mintaqaviy rivojlanish loyihalari

Yil	Real YAIM o'sishi (%)	Asosiy omillar	Hukumat va institutsional javob / yechimlar
2017	1.7	Korporativ investitsiyalar, eksportning o'sishi	Korporativ soliqlarni kamaytirish, "Ishlab chiqarishda IV sanoat inqilobi" siyosatini boshlash
2018	0.3	Aholi qarishining kuchayishi, ichki bozor zaifligi	Mehnat migratsiyasi bo'yicha liberal siyosatlar, nafaqaga chiqish yoshining ko'tarilishi
2019	-0.2	QQS oshishi (8 % → 10 %), iste'molchilar ishonchining pasayishi	Aholiga pul to'lovlari, iste'molni qo'llab-quvvatlovchi subsidiyalar, qisqa muddatli moliyaviy yengilliklar
2020	-4.5	COVID-19 pandemiyasi, eksport va turizm tanazzuli	Sog'liqni saqlashga katta byudjet ajratilishi, 234 mlrd dollarlik iqtisodiy yordam paketi, ish haqi subsidiyalari
2021	1.7	Tiklanish bosqichi, rag'batlantiruvchi fiskal siyosat	"Go To Travel" dasturi orqali turizmga yordam, aholini vaksinalash orqali iqtisodiy faollikni oshirish
2022	1.0	Energiya narxining oshishi, global inflyatsion bosim	Energetika islohotlari, qayta tiklanadigan energiya bo'yicha subsidiyalar va soliq imtiyozlari
2023	1.9	Turizmning tiklanishi, raqamli texnologiyalarni joriy etish	Raqamli infratuzilmani kengaytirish, "Digital Agency" tashkil etilishi, xalqaro sayyohlarga ochiqlik siyosati
2024	1.2 (prognoz)	Ichki talabning sustligi, ishchi kuch tanqisligi	Yangi immigratsion qonunlar, uzoq muddatli mehnat bozorini modernizatsiya qilish rejaları, mehnat samaradorligini oshirish strategiyasi

2010–2012-yillar oralig'ı Yaponiya iqtisodiyoti uchun sinovli, ayni paytda strategik jihatdan o'zgaruvchan davr bo'ldi. Bu yillar nafaqat global moliyaviy inqirozdan so'nggi tiklanish bosqichi, balki tarixiy darajadagi tabiiy falokatlar va ularning iqtisodiy oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha Yaponiyaning iqtisodiy siyosatidagi chidamlilik imtihoni sifatida namoyon bo'ldi.

2008–2009-yillarda yuz bergan global moliyaviy inqiroz Yaponiyaga jiddiy zarar yetkazdi. Ayniqsa, eksportga tayanadigan iqtisodiy model sharoitida bu holat izziz o'tmadi. Shunga qaramay, 2010-yilga kelib Yaponiya iqtisodiyoti nisbiy tiklanishga erishdi. Jahon iqtisodiy muhitining qisman jonlanishi, ayniqsa Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan bo'lgan talabning ortishi hisobiga eksport hajmi oshdi. Bu esa o'z navbatida, sanoat ishlab chiqarishini rag'batlantirdi va yalpi ichki mahsulotda 4,2 % real o'sish qayd etildi.

Ushbu o'sish, asosan, quyidagi omillar hisobiga yuzaga keldi:

Tashqi talabning tiklanishi – Yaponiya mahsulotlariga (avtomobil, elektronika) xalqaro bozor talabi ortdi;

Ichki ishlab chiqarishning jonlanishi – korxonalar faoliyatini kengaytirishga kirishdi;

Davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish choralarining davom ettirilishi – kreditlarga yengilliklar, infratuzilma loyihalariga mablag' yo'naltirildi.

Shu davrda Yaponiya YAIM hajmi taxminan 5,7 trillion AQSh dollariga teng bo'ldi.

Yaponiya iqtisodiyotida qayta tiklanish bosqichi davom etayotgan bir vaqtda, 2011-yil 11-mart kuni sodir bo'lgan Tohoku zilzilasi (9,1 magnituda) va unga ergashgan sunami hamda Fukusima–1 AES halokati iqtisodiy barqarorlikka og'ir zarba berdi. Bu falokat 20 mingdan ortiq inson hayotiga zomin bo'ldi, infratuzilmani izdan chiqardi, energiya ta'minotida jiddiy uzilishlarga olib keldi va iste'molchilarda ishonchsizlik kayfiyatini yuzaga keltirdi.

Ushbu ofatning iqtisodiy oqibatlari quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ldi:

Infratuzilma talofatlari – temir yo'llar, portlar, elektr tarmoqlari faoliyati izdan chiqdi;

Energetik tanqislik – AES'lar to'xtatilgani bois energiya importiga qaramlik oshdi;

Ishlab chiqarish pasayishi – ayniqsa Shimoliy–Sharqiy hududlar iqtisodiy hayotdan ajraldi;

Iste'molchilarning ishonch darajasining tushishi – ichki bozorda talab kamaydi.

Shu bois, 2011-yilda real YAIM o'sishi –0,1 % darajasida salbiy ko'rsatkichga tushib ketdi. Hukumat favqulodda iqtisodiy yordam paketlarini joriy etdi, biroq bu xarajatlar YAIMning katta qismini o'zlashtirdi.

2012-yilga kelib, Yaponiya hukumati tomonidan keskin siyosiy va iqtisodiy choralar ko'rilishi natijasida iqtisodiyotda tiklanish jarayoni boshlandi. Asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo'ldi:

Infratuzilmani qayta tiklashga mo'ljallangan yirik investitsiyalar – milliy byudjetdan infratuzilmaga 18 trillion yen miqdorida mablag' ajratildi;

Soliq imtiyozlari va korxonalariga yengil kreditlar – ishlab chiqaruvchilarni faoliyatga qaytarishga qaratilgan;

Iste'molni rag'batlantirish – aholiga yo'naltirilgan subsidiya dasturlari;

Ish o'rinlarini tiklash – ishsizlik darajasi 2011-yildagi 4,6 % dan 2012-yilda 4,3 % ga kamaydi.

Natijada, 2012-yilda Yaponiya iqtisodiyoti 1,5 % real o'sishga erishdi. Bu yuqori ko'rsatkich bo'lmasa-da, falokatdan keyingi muhitda o'zini tiklayotgan iqtisodiyot uchun ijobiy burilish nuqtasi sifatida e'tirof etildi.



Yaponiyaning so'nggi yillardagi iqtisodiy o'sish sur'atlari Xitoynikiga nisbatan past bo'lishining asosiy sabablari quyidagicha umumlashtiriladi (4-jadval).

4-jadval. Yaponiya va Xitoy iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlar bo'yicha solishtirma tahlili

Yo'nalish	Yaponiya	Xitoy
<b>Demografik trend</b>	Aholi qarimoqda, tug'ilish darajasi past	Hozircha ishchi kuchi ko'proq, biroq o'zgaruvchan demografik bosim mavjud
<b>Mehnat bozori</b>	Ishchi kuchi tanqisligi, konservativ immigratsiya siyosati	Keng ishchi kuchi zaxirasi, kuchli urbanizatsiya jarayoni mavjud
<b>Raqamlashtirish</b>	Sekin sur'atda, biroq yangi strategiyalar boshlangan	Tezkor raqamlashtirish, sun'iy intellekt va IoT faol rivojlanmoqda
<b>Energetika</b>	Energiya resurslari importiga to'liq bog'liq	Ko'mir, gaz va AES bo'yicha milliy resurslarga ega
<b>Davlat investitsiyalari</b>	Sekin va ehtiyotkorona yondashuv	Katta hajmdagi infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan

Xitoyning o'sish strategiyasi — massiv infratuzilma sarmoyalari, ichki iste'molni rag'batlantirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish orqali tezkor natijalarga erishishga qaratilgan. Yaponiya esa, ko'proq ehtiyotkorlikka tayanib, strukturaviy islohotlar orqali barqarorlikka intiladi. Bu esa qisqa muddatli o'sish sur'atlarida sezilarli farqlarga olib kelmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi o'n to'rt yillik (2010–2024) davomida Yaponiyaning iqtisodiy holatini chuqur tahlil qilar ekanmiz, mamlakat o'zining ilg'or texnologik va sanoat salohiyatiga qaramay, turli ichki va tashqi omillar ta'sirida iqtisodiy o'sish sur'atini barqaror saqlab qolishda qiyinchiliklarga duch kelgani ayon bo'ladi. 2010-yildagi global moliyaviy inqirozdan keyingi eksportga asoslangan tiklanish 2011-yilgi Tohoku zilzilasi va Fukusima AES halokati tufayli keskin pasaydi. Xuddi shuningdek, 2014 va 2019-yillarda amalga oshirilgan iste'mol solig'i stavkalarining oshirilishi ichki talabni siqib qo'ydi. Yaponiyaning eng muhim tizimli muammosi – demografik inqiroz bo'lib, qarib borayotgan aholining ortishi ishchi kuchi tanqisligini kuchaytirdi va uzoq muddatli iste'mol darajasini pasaytirdi. COVID–19 pandemiyasi esa 2020-yilda real YAIMni –4,5 foizga tushirgan eng yirik inqiroz holatiga aylandi. So'nggi yillarda turizm sektori va raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiy o'sishga ma'lum darajada yordam bermoqda, biroq ichki talabning susayishi, mehnat bozorida muammolar va tashqi geosiyosiy xatarlar, xususan Rossiya–Ukraina urushi oqibatida energiya narxlarining o'zgaruvchanligi Yaponiya iqtisodiyotining barqaror tiklanishiga jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Yaponiya 2021-yildan boshlab fiskal rag'batlar, sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar va raqamli infratuzilmani kengaytirish orqali tiklanish yo'lga o'tdi. Biroq Xitoy kabi tez sur'atda o'sayotgan mintaqaviy raqobatchilar bilan solishtirilganda, Yaponiyaning iqtisodiy tiklanishi sekin kechmoqda. Bu holat Yaponiya iqtisodiyotining ichki bozorga yuqori darajada bog'langanligi, islohotlar sur'atining pastligi va mehnat kuchi bilan bog'liq inqirozlar bilan izohlanadi.

Ushbu vaziyatda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, Yaponiya o'ziga mos tashqi iqtisodiy hamkorni tanlashi kerak. Mavjud demografik muammolarni inobatga olgan holda, bu hamkor mamlakatda mehnat kuchi ortiqcha bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, Hindiston yoki O'zbekiston bilan iqtisodiy sheriklik Yaponiya uchun manfaatli bo'lishi mumkin. Bu davlatlarda xomashyo arzon, mehnat resurslari esa yetarli. O'z navbatida, O'zbekiston va Hindiston ham demografik muammolarga duch kelmoqda: Yaponiyada bu muammo aholi sonining kamayishi shaklida namoyon bo'lsa, ushbu mamlakatlarda aksincha, aholi sonining ortishi muammo tug'dirmoqda. O'zbekiston–Yaponiya hamkorligi har ikki mamlakat uchun foydali bo'lib, O'zbekiston arzon ishchi kuchi va xomashyo bilan ta'minlashi, Yaponiyaning esa sifatli sanoat tajribasini o'rganishi mumkin.

Ikkinchidan, O'zbekistonda Yaponiya korxonalarini tashkil etish har ikki tomon uchun iqtisodiy foyda keltiradi. O'zbekiston bu orqali yangi ish o'rinlari, texnologik tajriba va byudjetga tushadigan soliq tushumlariga ega bo'lsa, Yaponiya esa mahsulotlarni nisbatan arzon ishlab chiqarish, shuningdek, O'zbekistonga yaqin joylashgan mamlakatlarga eksportni samarali logistika asosida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, Yaponiya uzoq muddatli shartnomalar tuzish amaliyotiga o'tishi lozim. Xitoy bu borada o'zini ilg'or tutadi — u har doim uzoq muddatli forward shartnomalar tuzadi, Yaponiya esa aksincha, qisqa muddatli kelishuvlarga moyil. Bu esa barqarorlikni cheklaydi.

To'rtinchidan, O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish zarur. Bu islohot ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, fuqarolarning o'zaro tashriflarini osonlashtiradi. Bu

orqali O'zbekiston fuqarolari Rossiya emas, aynan Yaponiyada ishlash va tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, qaytgan fuqarolar mamlakat rivojiga xissa qo'sha oladi.

Beshinchidan, Yaponiya mahsulot emas, texnologiyani eksport qilishga urg'u berishi kerak. Xitoy arzon mahsulotlarni eksport qilmoqda, biroq texnologiyani to'liq o'zlashtira olmagan sohalar hali ko'p. Jumladan, materialshunoslik, robototexnika, akkumulyator texnologiyalari, sun'iy intellekt tizimlari. Yaponiya esa ushbu texnologiyalarni "premium" B2B formatda eksport qiluvchi yetakchi sifatida maydonga chiqishi mumkin.

Oltinchidan, Yaponiya "eco-tech" yo'nalishida global yetakchilikka intilishi lozim. Xitoy hozircha arzon ishlab chiqarishga e'tibor qaratayotgan bo'lsa, Yaponiya sifatli va ekologik toza texnologiyalarni — suvda harakatlanuvchi transport vositalari, barqaror energiya tizimlari, karbon–neytral shaharlar kabi ilg'or konsepsiyalarni ilgari surishi mumkin. Bu orqali Yaponiya "yashil innovatsiya" borasida G'arb va Xitoy o'rtasida strategik oraliq pozitsiyani egallashi mumkin.

Yettinchidan, Yaponiya "soft power" — ya'ni madaniyat va kreativ sanoatni eksport qilish salohiyatini yanada kuchaytirishi kerak. Xitoy asosan mahsulot eksportiga e'tibor qaratayotgan bo'lsa, Yaponiya allaqachon madaniy mahsulotlar, xususan anime, manga, dizayn va shahar me'morchiligi sohalarida global brendga aylangan. Shu bois, Yaponiya o'zining "yumshoq kuch" imkoniyatlarini yanada faol targ'ib etishi va iqtisodiy diplomatiyasi bilan uyg'unlashtirishi zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aoki, M. (2010). *Corporations in Evolving Diversity: Cognition, Governance and Institutions*. Oxford: Oxford University Press.
2. Lin, J. Y. (2012). *New Structural Economics: A Framework for Rethinking Development and Policy*. Washington, D.C.: World Bank Publications.
3. Freeman, C. (1987). *Technology and Economic Performance: Lessons from Japan*. London: Pinter Publishers.
4. METI – Ministry of Economy, Trade and Industry, Japan. (2023). *White Paper on Manufacturing Industries (Monod-zukuri)*. Tokyo: METI.
5. World Economic Forum. (2024). *Future of Jobs Report*. Geneva: WEF. <https://www.weforum.org>.
6. OECD. (2023). *Digital Government in Japan: Strengthening the Use of Digital Tools*. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/gov/digital-government-in-japan-2023.htm>.
7. Zhang, W., & Wu, Y. (2019). *Innovation and Industrial Upgrading in China: An Introduction*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
8. Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2023). *Japan's Strategy for Overseas Human Resources and Immigration*. Tokyo: MOFA. <https://www.mofa.go.jp>.
9. Harvard Business Review. (2022). *Why Japan Still Matters in Global Innovation*. <https://hbr.org>.
10. The Japan Times. (2024). *Japan's Tech Identity Crisis in the Age of Chinese Copycats*. <https://www.japantimes.co.jp>.
11. UNIDO – United Nations Industrial Development Organization. (2022). *Green Industrial Policy: Concept, Policies, Country Experiences*. Vienna: UNIDO.
12. Kusaka, W. (2021). *The Logic of Copying: Intellectual Property and Innovation in Asia*. Singapore: NUS Press.
13. IMF – International Monetary Fund. (2023). *Japan: Selected Issues Paper*. Washington, D.C.: IMF. <https://www.imf.org>.
14. Shambaugh, D. (2021). *Where Great Powers Meet: America and China in Southeast Asia*. Oxford: Oxford University Press.
15. Toyoda, S. (2020). *Innovation Through Constraint: The Toyota Way in the Age of Global Change*. Toyota Global Report.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**4-Maxsus son.**

**Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)